

Ayollar jinoyatchiligi va oila turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha Ingliz-amerika huquqiy oilasi davlatlarining tajribasi

Ayollar tomonidan oila va turmush doirasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlar jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayollar jinoyatchiligi va oila turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi xorijiy tajriba mazkur masalalar kompleks va sohalararo yondashuv talab etishini ko'rsatadi. Quyida Ingliz-amerika huquqiy oilasi tarkibiga kiruvchi ayrim xorijiy mamlakatlarda bu borada olib borilgan chora-tadbirlar keltirilgan.

Buyuk Britaniya hukumati ayol markazlari va jamiyatga asoslangan qo'llab-quvvatlash dasturlariga sarmoya kiritish orqali ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurashishga, siyosiy tashabbuslar vositasida ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar uchun esa ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatish hamda jinoiy faoliyatga aralashishini kamaytirishga qaratilgan.

Buyuk Britaniyada "Maishiy zo'ravonlik to'g'risida"gi qonun (Domestic Abuse Act 2021)¹ qabul qilingan bo'lib, u jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo'ravonlikni qamrab oladi. Ushbu qonun asosida:

- jabrlanuvchilarga bepul huquqiy yordam ko'rsatiladi, himoyasi choralari ko'riladi;
- maishiy zo'ravonlik uchun kuchaytirilgan jazolar qo'llaniladi;
- bolalar va ayollarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish holatlari alohida ko'rib chiqiladi.

Buyuk Britaniyada bolalar huquqlarini muhofaza qilish maqsadida qat'iy qonunlar qabul qilingan. Xususan, **Children Act 1989** qonuniga² muvofiq, bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki beparvolik qilgan ota-onalar javobgarlikka tortiladi. Jumladan:

- ayollar tomonidan bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki beparvolik holatlari sinchkovlik bilan tekshiriladi;

¹ <https://www.lawsociety.org.uk/topics/family-and-children/domestic-abuse-act-2021?utm>

² <https://frg.org.uk/get-help-and-advice/a-z-of-terms/children-act-1989/?utm>

- bolalarni himoya qilish agentliklari (Child Protection Services) tezkor choralar ko‘radi.

- voyaga yetmaganlarni jinoyatga jalb qilish og‘ir jinoyat sifatida qaraladi.

Britaniya sudlari oilaviy mojarolarni hal qilishda muloqot va maslahat berish amaliyotini qo‘llaydi. **Mediation services (mediatsiya xizmati)** orqali oila a‘zolari o‘rtasidagi nizolar hal qilinishiga yordam beriladi.

Mamlakatda oilada sodir etiladigan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishda jamoatchilikning o‘rni beqiyos bo‘lib, bu borada Buyuk Britaniyada quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- **Refuge** va **Women's Aid** ³ kabi tashkilotlar jabrlangan ayollarga yordam beradi;

- davlat tomonidan himoya uylari tashkil etilgan bo‘lib, zo‘ravonlikdan aziyat chekkan ayollar va bolalar uchun xavfsiz boshpanalar beriladi.

- huquqbuzarliklarning oldini olish uchun politsiya va ijtimoiy xizmatlar hamkorligida ishlar olib boriladi⁴.

AQShda federal va mahalliy darajada huquqbuzarlikning oldini olishga yo‘naltirilgan dasturlar mavjud. Retsidiv jinoyatlarning miqdorini kamaytirish borasida yuqori samara ko‘rsatkichlariga erishgan dasturlardan biri “Qamoqqa olish muammolari Minnesota dasturi” (The Minnesota’s Challenge Incarceration Program (CIP) bo‘lib, zo‘ravonlik bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar va moddiy zarar yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. **Dasturning asosiy maqsadi** retsidiv jinoyatlar soni va qamoq jazosiga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida mahbusning jamiyatdagi o‘z taqdiriga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishdan iborat. AQShda **“Ikki tomonlama keng qo‘llab-quvvatlanadigan aybdan poklanish” (the REDEEM Activith Broad Bipartisan Support)** deb nomlangan qonun loyihasi qabul qilingan. Mazkur qonun loyihasining asosiy moddasi **“muhrlash”**ni, ya’ni shaxs tomonidan amalga oshirilgan jinoyatni yashirishga imkon beradigan mexanizmni yaratish hisoblanadi.

³ <https://refuge.org.uk/?utm>

⁴ <https://www.womensaid.org.uk/?utm>

Bu esa, o‘z navbatida, professional kasbiy malakalarga ega shaxslarga o‘zi va oilasini ta‘minlash uchun doimiy ish o‘rniga ega bo‘lish, o‘zining kasbiy ko‘nikmalari va mehnati bilan jamiyat rivoji va mamlakat iqtisodiyotiga o‘z ulushini qo‘shishga xalaqit beradigan to‘siqlarni bartaraf etishga, “kriminal o‘tmishga ega bo‘lgan millionlab amerikaliklarga ish topishga va jamiyatga foydasi tegadigan, qonunga bo‘ysunadigan a‘zolarga aylanishga yordam beradi”⁵.

Kanadaning ayollar jinoyatining oldini olishga qaratilgan siyosiy yondashuvi **ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash** va **reabilitatsiyaga e‘tiborni** o‘z ichiga oladi. Kanadada ayollar xavfsizligi ta‘minlash hamda jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan milliy strategiya mavjud. Strategiya jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha **Milliy strategiya (NCPS)** deb ataladi va u Kanada jamoat xavfsizligi tashkiloti tomonidan moliyalashtiriladi⁶.

Kanada advokatlar assotsiatsiyasining fikricha, “huquqiy xabardorlik – yuridik kontekstda qo‘llaniladigan so‘zlarni tushunish, ulardan xulosa chiqara olish va ushbu xulosalardan o‘z faoliyatida foydalanish qobiliyati”dir⁷.

Uzluksiz yondashuv (**Continuum approach**) tarafdorlarining fikricha, huquqiy savodxonlik “bir tomondan advokatlar va sudyalari kabi yetuk huquqiy bilimga ega insonlar, boshqa tomondan esa huquqiy bilimga ega bo‘lmagan oddiy odamlar joylashgan makon bo‘ylab tarqalgan qobiliyat” hisoblanadi. Ushbu yondashuvni qabul qilgan huquqshunos olim Vayt (**White**)ning fikricha, huquqiy savodxonlik tobora kuchayib borayotgan huquqiy va sud tizimini madaniyatimizda mazmunli va faol o‘rin egallagan huquqiy nutqning malaka darajasi sifatida tushunish mumkin.

Bilder (**Builder**) huquqiy savodxonlikni huquqiy faoliyat olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan “**funksional ko‘nikmalar spektri**” sifatida talqin etadi. Uzluksiz yondashuv (**Continuum approach**)ni esa quyidagicha izohlaydi: “Zamonaviy jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etish uchun ma‘lum darajada huquqiy

⁵ An Outcome Evaluation of the Challenge Incarceration Program – October 2006 (Minnesota DOC Study) 2017, viewed 11 November 2018, https://mn.gov/doc/assets/Challenge%20Incarceration%20ProgramAug2017_tcm1089-308975.pdf.

⁶ <https://www.publicsafety.gc.ca/cnt/cntrng-crm/crm-prvntn/strtg-en.aspx>

⁷ Good Citizens: Literacy Training in Anxious Time. Pittsburgh: University of Pittsburgh Press, 2014. Project MUSE. Web. Feb. 2015. <<http://muse.jhu.edu>>

savodxonlik talab etiladi, lekin oddiy insonlar uchun “huquqshunoslar kabi fikrlash va yozish” darajasiga erishish shart emas”.

Yangi Zelandiyada ayollarning jinoiy ishtirokining oldini olish uchun samarali va keng qamrovli strategiyalarni ishlab chiqish uchun jins, irqiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning “kesishuvi”ni hisobga olgan holda jinoyatchilikning oldini olishga yaxlit yondashadi⁸. Yangi Zelandiyada ayollar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha bir qator dasturlar mavjud. Bularga **erta aralashuv** - jinoiy xatti-harakatlarga qo'l urish xavfi mavjud bo'lgan qizlar va yoshlarga qaratilgan dasturlar, **maqsadli aralashuvlarga esa** ushbu aralashuvlar jarohat olgan yoki ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lgan ayollarga maxsus ijtimoiy-iqtisodiy yordam va xizmatlarni taqdim etadigan dasturlar kiradi. **Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish dasturi (FVIP)** oiladagi zo'ravonlikka uchragan ayollar o'rtasida jinoyat sodir etilishi darajasini pasaytirib, **birgalikda xavfsiz jamoalar (SST)** dasturi yuqori xavfli hududlarda jinoyat va zo'ravonlikni kamaytirishga qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ingliz-amerika huquqiy oilasiga kiruvchi davlatlarda oila va turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlar mavjud. Ushbu mamlakatlar qonunchiligi jabrlanuvchilarni himoya qilishga qat'iy e'tibor qaratadi. Ushbu tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda ham profilaktika choralarini kuchaytirish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va huquqiy yordamni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tleuova Gulmira Ospanovna

*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi*

⁸ Taylor, Annabel. "Substance use and abuse: Women's criminal reoffending in New Zealand." *Affilia* 23.2 (2008): 167-178.